

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Nurmatova Zarifa Abduraup qizi IKKI TILDA MULOQOT QILADIGAN BOLALARNING NUTQIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	5
2. O‘tamuradova Malohat ALISHER NAVOIY MEROSI NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARIDA.....	9
3. Петросянец Эрнст Ашотович ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, МОТИВИРОВАННЫЕ ИМЕНАМИ СОБСТВЕННЫМИ ПОЛИТИКОВ В АНГЛОЯЗЫЧНОМ МЕДИАДИСКУРСЕ.....	13
4. Jo‘raqulova Mushtariy Abdumalik qizi O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SPORT TERMINLARINING YASALISH PARALLELIGI TADQIQI.....	23
5. Gulamova Malika Yakubovna O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA NUTQIY STRATEGIYALAR VA UNDASH USULLARI.....	27
6. Achilova Ozoda Farxodovna YAPON TILIDAGI MAQOLLARNI O‘ZBEK TILIDA MUQOBILLASHTIRISHDA TAYANILADIGAN OMILLAR.....	32
7. Nematillayevna Zubaydova PROBLEMS RELATED TO THE COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTICS.....	36
8. Насруллаева Тозагуль Сухробовна ПРАГМАТИЧЕСКИЕ И ЭТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА В РОМАНЕ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА «ФИНАНСИСТ».....	39
9. Mo‘minova Ma’suma G‘olib qizi SUV LEKSEMASI TAHLILIGA OID QIYOSIY-TARIXIY, SISTEM-STRUKTUR YO‘NALISHDAGI TADQIQOTLAR.....	43
10. Xamrayeva Zebiniso Xaydarovna MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALARNING IYERARXIK VA FUNKSIONAL TIZIM DOIRASIDAGI DERIVATSION VA SEMANTIK TAHLILI.....	53
11. Malika Solieva PHONOLOGY AND CULTURE: LINGUISTIC ASPECTS OF INTERACTION.....	58
12. Kodirova Shaxnoza Abduraxmonovna “MIMIKA, JEST VA BOSH HARAKATLARI KABI NOVERBAL MULOQOTNING QIYOSIY, LINGVOMADANIY TAHLILI.” (YAPONIYA, O‘ZBEKISTON VA BOSHQA MAMLAKATLAR MISOLIDA)...	61
13. Shamuradova Naima Muxtarovna DISCOURSIIVE AND PRAGMATIC FEATURES OF PROVERBS EXPRESSING VERBAL POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	66
14. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o‘g‘li STENDAL IJODIDA ROMANTIZM VA REALIZMNING TA’SIRI (“Qizil va qora” hamda “Parma monastiri” asarlari misolida).....	70
15. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTINI S.MOEM ISHLARIDA REPREZENTATSIYASI XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI.....	74
16. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA’MINOTI.....	79
17. Davlatova Hulkaroy Uktamovna TILSHUNOSLIKDA GENDER TUSHUNCHASINING TADQIQI: BOLALAR NUTQI MISOLIDA.....	84

18. ЗулфANOVA Нигина Нуриддиновна СТРУКТУРА ФРЕЙМА «ТВОРЧЕСТВО» ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РОМАНА «А.МЁРДОК «THE BLACK PRINCE».....	93
19. Turakulova Sitora Fazlidinovna JANUBIY KOREYALIK YOZUVCHI KON JIYONNING “BIZNING BAXTLI DAMLARIMIZ” ROMANIDAGI OBRAZLAR RUHIYATI TASVIRI.....	98
20. Nurimbetova Dilnaz Yeshmurotovna "MILLIY TAOM" REALIYALARI VA ULARNING TARIXIY KONTEKSTI.....	104
21. Erkinova Ruxshona O'tkironovna, Kurbonova Gulnoza Irkinovna YAPON VA JAHON ILMIY-FANTASTIKA (SF) ADABIYOTI QIYOSIY TAHLILI.....	109
22. Qayimova Maftuna Tursunovna OILAVIY MUHITDA QIZLARINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA).....	114
23. Xasanova Mavlyuda Batiyralievna ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ДИСКУРСА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	117
24. Iskandarova Aybibi Raximbayevna “QIYOMAT” ROMANIDAGI FRAZEMALARNING XOSLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR.....	125
25. Barno Abdusattarovna Mirsharipova PAK VANSO ASARLARINING RUS TILIGA TARJIMALARIGA DOIR.....	134
26. Muslimova Shahnoza Sunnatovna YOM SANSOP HIKOYALARIDA HAYOT VA O'LIMNING YANGI IFODASI.....	139
27. Anorqulov Sanjar Iskandarovich TILSHUNOSLIKDA TOPONIMIK KONSEPT VA UNING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI.....	144
28. Karimboyeva Charos Ikrom qizi SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI.....	148
29. Mirvaliyeva Dildora Anvarovna DAVLAT TILIDAGI AXBOROT USLUBI MATNLARINING ELEKTRON TA'MINOTI .HUJATCHILIKDA IMLO VA TINISH BELGILARI.....	153
30. Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi, Abdullayeva Nasima Murodullayevna O'ZBEK TILI ELEKTRON KORPUSI UCHUN DIALEKTAL SUBKORPUSINI YARATISH MASALALARI.....	157
31. Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich ASPEKTUAL SEMANTIKANING KOGNITIV MAZMUNI.....	166
32. Shamaxmudova Aziza Furkatovna MILLIY XARAKTER VA XUSHMUOMALILIK: ISPAN TIL SOHIBLARI TAFAKKURIDA HURMAT TAMOIYILLARI.....	170
33. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTIV SINTAKSEMALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	176



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Karimboyeva Charos Ikrom qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

SIROJIDDIN SAYYID VA BAXTIYOR GENJEMUROD SHE'RIYATIDA TUSH OBRAZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18734100>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalqining ardoqli shoiri Sirojiddin Sayyid hamda qoraqalpoq she'riyatining atoqli vakili Baxtiyor Genjemurod lirikasidagi muallif ruhiyati haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan bo'lib, bir-birga qon-qardosh ikki xalq ijodkorlarining she'rlari tahlilga tortilgan. Har ikki shoir qahromon psixologiyasini tasvirlashda har xil ruhiyat tamoyillaridan foydalangan bo'lib, ayniqsa tush motivi asosiy o'rinni egallaydi. B.Genjemurod uchun tush - ruhiy yuksalish va falsafiy mushohada maydoni bo'lsa, S.Sayyid uchun u - dunyo, hayot, tiriklik va umrni sarhisob qilishga da'vatdir. O'zbek va qoraqalpoq xalqining atoqli ijodkorlari ijodidagi badiiy yaqinlik va o'ziga xoslik adabiyotda tush tamoyili tasviri misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar. O'zbek she'riyati, qoraqalpoq adabiyoti, lirika, obraz, tush motivi, badiiylik, ruhiyat tamoyillari, lirik qahramon, lirik kechinma, badiiy tafakkur.

Каримбоева Чарос Икром кизи

Каракалпакский государственный университет

Преподаватель кафедры узбекского языка и литературы

ОБРАЗ СНА В ПОЭЗИИ СИРОДЖИДДИНА САИДА И БАХТИЁРА ГЕНДЖЕМУРАДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье отражены размышления о психике автора в лирике заслуженного поэта узбекского народа Сироджиддина Саййида и выдающегося представителя каракалпакской поэзии Бахтиёра Генжемурода, проанализированы стихотворения творцов двух кровно-братских народов. Оба поэта использовали различные психологические принципы для описания психологии героя, и мотив сна в частности занимает ключевое место. Для Б. Генжемурода сон – это область духовного подъёма и философского размышления, а для С. Саййида – это призыв к осмыслению мира, жизни, жизненной силы и бытия. Художественная близость и самобытность произведений выдающихся творцов узбекского и каракалпакского народов раскрываются на примере изображения принципа сна в литературе.

Ключевые слова: Узбекская поэзия, каракалпакская литература, лирика, образ, мотив сна, художественность, принципы духовности, лирический герой, лирическое переживание, художественная мысль.

Karimboyeva Charos Ikrom qizi

Karakalpak State University

Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature

THE IMAGE OF DREAM IN THE POETRY OF SIRAJIDDIN SAYID AND BAKHTIYOR GENJEMURAD

ANNOTATION

This article reflects the thoughts about the author's psyche in the lyrics of the honored poet of the Uzbek people Sirojiddin Sayyid and the outstanding representative of Karakalpak poetry Bakhtiyor Genjemurod, and analyzes the poems of the creators of two blood-brotherly peoples. Both poets used various psychological principles to describe the psychology of the hero, and the dream motif in particular occupies a key place. For B. Genjemurod, a dream is a field of spiritual uplift and philosophical observation, while for S. Sayyid, it is a call to sum up the world, life, vitality and life. The artistic closeness and originality in the works of outstanding creators of the Uzbek and Karakalpak peoples are revealed in the example of the depiction of the dream principle in literature.

Key words. Uzbek poetry, Karakalpak literature, lyrics, image, dream motif, artistry, principles of spirituality, lyrical hero, lyrical experience, artistic thought.

Nasriy asarlarda portret va ruhiy xarakteristika ruhiyatni ifodalashda yetakchilik qilsa, she'riyatda ana shunday imkoniyatlar xotira, xayol, monolog, tush, peyzaj kabi badiiy vositalar orqali amalga oshadi. Albatta, lirikada ham portret, nutqiy xarakteristika umuman ishlatilmaydi deb bo'lmaydi. Faqat she'riyatda imkoniyati biroz cheklangan. Badiiy psixologizmning poetik vositalari haqida bir qancha ilmiy ishlarimiz bor. Xususan, adabiyotshunos N.Shodiyevning "Ruhiyat rassomi" risolasi aynan shu masalaga bag'ishlangan. A.Qahhorning "Sinchalak" qissasi va "Sarob" romanlari asosida psixologizmning badiiy vositalari: psixozatsiyalashgan portret, nutqiy xarakteristika, gallyutinatsiya, hislarning tashqi ekspressiyasi kabi badiiy vositalar orqali qahramonlar ruhiyatini ifodalashdagi vazifalariga atroflicha ilmiy izoh bergan.

O'zbek adabiyotining ijodkorlari inson ruhiy olamini badiiy yoritish, tush motiviga tobora ko'proq murojaat qila boshladi, tush tasviri epizodi og'zaki va yozma adabiyotning barcha: epik, lirik, dramatik va lero-epik turlari, janrlari uchun xosligini isbotlaydi. Negaki, "Fiziologik-ruhiy hodisa bo'lgan tush fenomeni insoniyatning butun tarixi uchun birdek xosdir. Ibtidoiy madaniyat davrlaridan keyingi ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida ham odamlar tush ko'rgan. Ahli basharning bolalikdan umrining so'nggi damlarigacha tush ko'rishi, ko'rayotganligi, kelajakda ham shunday bo'lishi isbot talab qilmaydi. Shunday ekan, tushning inson hayoti va badiiy ijoddagi o'rni benihoya muhimdir" [1:5]. Tushlarning lirik matndagi roli, asosan, qahramonlar, ichki dunyosini, ruhiy holatini, harakat va kechinmalarini ta'sirli va hayotiy aks ettirish bilan xarakterlanadi. "Tush o'z funksiyasi va mazmuni jihatdan xilma-xil bo'lsa-da, u hamma vaqt, har qanday holatda obraz yaratishning muhim vositasi sifatida qahramonlarning ruhiy ahvolini chuqur ochib berish maqsadida qo'llaniladi"[2:71].

Zamonaviy lirik she'riyatda ruhiyat tasviri tamoyillari badiiy vosita sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. U endilikda shunchaki tasviriy element emas, balki poetik matnning ichki ma'no qatlamlarini ochish, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda markaziy komponentga aylanmoqda. Bu hol ayniqsa Baxtiyor Genjemurodning ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir tush motivini tasvir yaratish vositasigina emas, balki ruhiy holatni aks ettiruvchi, ichki olam bilan uyg'unlashgan badiiy semantik konstruksiya sifatida qo'llaydi.

Túsimde jolbaris shaptı mağan –
“Bismillah!” dep qolğa jay aldım,
júrektiń túısı edi nishanam,
atpadım bir máwrit oylandım.

Aytpadım: "Ayğa shap, sherim!" dep –
óзимди алғанın tiledim.

“Baxit – sherden kelgen ólim...” dep
jaqsıǵa jorıdı júregim.

Hám tarttım jayımdı aspańǵa –
nıshanam sher emes, ay boldı,
ınıranıp men jaqqa taslanǵan,
jolbarıs qańsılap jıǵıldı.

Izledim: “Bul ne kúsh, ne qarıw?!”
Sırtınan Jay tartqan qay batır?!”
Pánjesi astında bir arıw –
biziń oq qadalǵan ay jatır...[3:14]

Lirik qahramonning bu xil tush ko‘rishining boisi nimada? Yo‘lbars hujum qilishi, bu – hayotdagi xavf, qo‘rquv, sinov yoki ichki “yovuzlik”ning timsoli bo‘lishi mumkin. Birinchi bandda qahramon xavfga duch keladi, lekin u tavakkal qiladi – “Bismillah” deydi va yoyini qo‘lga oladi. Bu uning qo‘rquvdan qochmasligini, kurashga tayyorligini bildiradi. Ikkinchi bandda esa u yo‘lbarsni o‘z ustidan kelishini va qahramon o‘ziga zarar berishini xohlaydi. Chunki, sherdan o‘lim topish lirik qahramon uchun baxt. Shoir bolaligidan bobosidan xalq dostonlarini eshitib katta bo‘lgan va bu bandda shunga guvoh bo‘lamiz. ““Qoblan” dostonida Bo‘z ona yo‘lbarisning yuragiga boshqorong‘u bo‘ladi. Yerik oshi yo‘lbarsni otib olish maqsadida yurgan Qidirboy uni to‘satdan uchratib qolib “Ayg‘a shap sherim, ayg‘a shap!” dep ko‘klarga ko‘taradi. Shunda maqtovga chidamay osmonga sakragan yo‘lbarsni Qidirboy chol otib oladi. Baxtiyorning lirik qahramoni unday qilmaydi, yo‘lbarsni ulug‘lamaydi ham, otmaydi ham. Aksincha, uning o‘ziga hujumini, shunday qilib, yo‘lbarsdan o‘lim topishni xohlaydi”[5:100]. Uchinchi band bu eng muhim nuqta. Qahramon yo‘lbarsni emas – oyga nishon oladi. Bu obraz kuchli majoz: odam yovuzlikka qarshi emas, balki yorug‘likka, ilohiylikka, ezgulikka qarata o‘q uzadi. Oy – poklik, yorug‘lik, ma‘naviy kuch timsoli. Natijada yo‘lbars yiqiladi. Demak, ezgulikka intilish orqali yovuzlikni yengadi. Yakun kutilmagan ramziy lahza; qahramon yo‘lbarsning qanday yiqilganini tushunmaydi. Uni kim otgan?! Bunga javob yo‘q. Tush motivi oraqli shoir ruhiyatini ochib bergan bu satrlarda mantiq izlashimiz, albatta, noto‘g‘ri. Chunki, mantiq bilan lirika bir-biri bilan mos kelmaydi. She‘riyatagi tuyg‘uni his qilish uchun tafakkurimizdagi fikrni yurakdan o‘tkazib, qalbimiz bilan anglashimiz shart. Shunda uning badiiy dunyosidan lazzat olib, ko‘nglimizda uyg‘ongan so‘roqlarga javob topamiz.

She‘rning umumiy g‘oyasi ezgulikka intilish, yovuzlikni yengish, lekin ba‘zan bu yo‘lda o‘zi yaxshi ko‘rgan, muqaddas sanagan narsasini jarohat qilishi mumkin yoki yana bir qarashimiz insonning ichidagi kurashda uning nuri (oy timsoli) ba‘zan zarba yeydi, ammo aynan o‘sha nur tufayli zulmat yengiladi.

O‘nımnan shorshınıp uyqıǵa qashaman –
túsimde shorshıtar qara aydarha,
appaq aydarhanı shaynap atırǵan.

Ayaq-qolim tasqa aylanǵanlıqtan
qara aydarhanı qılıshlay almay,
òlip OYANAMAN mıń árman menen[3:63].

Quyidagi misralar kuchli dramatism, ruhiy bosim va qo‘rquv tasviriga ega. She‘r tush ramzi orqali insonning ichki kurashini ko‘rsatadi. Shoir charchoqdan qochib, uyquga bosh uradi. Lekin uyqu unga tinchlik emas, balki yana bir mashaqqatli holat keltiradi. Bu satr shoirning ruhiy toliqishini ifodalaydi. “Túsimde shorshıtar qara aydarha, appaq aydarhanı shaynap atırǵan.” Qora aydarha – zulmat, qo‘rquv, bosim, dard timsoli. Aq aydarha – poklik, yaxshilik, yorug‘lik ramzi. Tushda qora aydarhaning oq aydarhani chaynashi – yaxshilikning ezilishi, umidning ustidan zulmatning bosib kelishi, tinchlikning barbod bo‘lishi ramzidir. Oq-qora, nur-zulmat, yaxshilik-yovuzlik – bu kuchli badiiy kontrast. “Ayaq-qolim tasqa aylanǵanlıqtan qara aydarhanı qılıshlay almay” shoirning butun vujudi to‘xtab qoladi, qo‘li-oyog‘i toshga aylanadi. Bu – hayotda ham, tushda ham insonning bir

paytda o'jiz qolishi, qo'ldan hech narsa kelmay qolgan holatlari timsoli. U qora aydarhaga qarshi kurasha olmaydi – bu esa ruhiy mahkumlikning, bosimning tasviri. Oxirgi tasvirda esa shoir o'zining kurasha olmayotganidan iztirobda uyg'onadi. "Ming armon bilan" aytolmagan gaplar, qilinmagan ishlar, orzu-umidlarning yarim qolganligi – barchasi bir uyg'onishda jamlanadi. Bu satr insonning hayotdagi afsuslari bilan uyg'onishi kabi talqin qilinadi.

Lirik qahramon ichki kechinma va ruhiyat olamini ruhiy bosim, zulmat va yorug'lik o'rtasidagi kurash, insonning ichki qo'rquvlari, chorasizlik va armonlar mavzularini tush obrazlari orqali beradi. Psixologizm va lirik kechinma o'zaro uyg'unlikda tush motivi bilan ifoda etilishi – ruhiyat talqinining badiiy-uslubiy vositasi sifatida baholandi.

Xuddi shunday tush ramzi orqali muallif ruhiyati tasvirni o'zbek xalqining ardoqli farzandi S.Sayyid she'riyatida ham kuzatish mumkin. Shoirning quyidagi she'rida tush ramzini boshqacha, yangicha usulda yaratilganiga guvoh bo'lamiz.

Bu oq tushday xush ayyomlar,
bu oqqushday xush oqshomlar,
Ko'ngillar ishq to'la jomlar
ko'ngil bazmi safosida.

Bu she'r nozik, eng musaffo tuyg'ularini ifodalovchi go'zal obrazlar bilan to'yingan. Shoir bu yerda oq tush va oqqush timsoli orqali poklik, orzuga o'xshash go'zallik, yengillik va huzur tuyg'usini ifodalaydi. Oq rang – sof muhabbat, orzu, baxt ramzi. Ayyomlar "oq tush"ga, oqshomlar "oqqush"ga qiyoslanishi o'tgan vaqtning naqadar unutilmas va beg'ubor bo'lganini ko'rsatadi. Bu satrlar xotiralardagi eng go'zal, eng yorug' kunlarga ishora. "Ko'ngillar ishq to'la jomlar ko'ngil bazmi safosida." Bu misralarda lirik qahramon vaqtni ko'ngillar bazmi, ya'ni muhabbat to'la, shodlik to'la majlis sifatida tasvirlaydi. Jom – sharob quyiladigan kosa. Bu yerda sharob o'rnida ishq bor. Demak, ko'ngillar o'sha kezlarda muhabbat, shavq, ilhom, baxtdan to'lib-toshgan. "Ko'ngil bazmi safosi" ruhning eng pok, eng huzurbaxsh, eng musaffo holatlari. Bu ibora orqali shoir o'tgan damlarning chinakam baxt ifodasi bo'lganini ta'kidlaydi. Umuman olganda, bu she'r o'tgan muhabbatli kunlarning yorug' xotirasi haqida. Lirik qahramon o'sha safoli ayyomlarni orzudek, oqqushdek beg'ubor tasavvur qiladi. Ko'ngillar esa muhabbat bilan to'lib, hayot go'yo shirin bazmga aylangan.

Ko'rganim bul bari, do'stlar, tush edi, ro'yo edi,
Ul mening baxtim ediyu, baxtim erdi uyquliq.

S.Sayyidning g'azal janrida yozilgan bu bayti armonga aylangan baxt, va o'tkinchi go'zallik tuyg'ularini ifodalaydi. Shoir boshidan o'tkazgan go'zal lahzalarni, his qilgan baxtini endi orzu-tush sifatida eslayapti. Go'yo o'sha baxtli kunlar haqiqat bo'lmay, faqat tush bo'lib o'tib ketgandek. "Tush edi, ro'yo edi" – bu iboralar orqali o'tgan baxtli damlarning qaytmasligi aytiladi. "Baxtim erdi uyquliq" – baxt ham uyqudek vaqtincha, o'tkinchi, uyg'onsang yo'qoladigan narsa ekanini anglatadi. Bu misralar inson hayotidagi eng go'zal lahzalar ko'pincha tushday o'tib ketishini, odam uyg'ongach esa ularning faqat xotira va sog'inch sifatida qolishini ta'kidlaydi. Shoirning ichida alam, armon, sog'inch bor.

Dunyoni xayr ila xo'shlarda ko'rdik,
Yuksak parvozlarni qushlarda ko'rdik.
Kechgan umrimizni qaytarib bo'lmas,
Go'yoki biz uni tushlarda ko'rdik.

She'r misralari chuqur falsafiy ma'no, hayot o'tkinchiligi va xotira-xayollarning timsoli bilan boyitilgan. Shoir birinchi misra hayotning ketma-ket o'tib borayotgan lahzalarini xayr va xo'sh vositasida talqin qiladi. Ya'ni, hayot kimgadir salom berish, kimgadir xayrlashish kabi tez va davomli jarayon. Hayot bir uchrashuv, bir ayriliq. Ikkinchi misra orzu va erkinlik timsoli. Qush – erkinlik, orzu, umid ramzi. Shoir insonning ichki istaklari, yuqori parvozlari, yuksak maqsadlarini qushlarning uchishida ko'radi. Bu misrada orzularga qo'yilgan umid va insonning yuksalishga bo'lgan intilishi aks etadi. Uchinchi satr hayot haqidagi eng achchiq haqiqatni eslatadi ya'ni vaqtning ortga qaytmasligi haqida. O'tgan yillar, o'tgan yosh, qilinmagan ishlar endi qo'l yetmaydigan xotira bo'lib qoladi. Shoir umrni tushga qiyoslaydi. Tush – bir lahzalik, noaniq, o'tkinchidir. Insonning butun umri

ham shunday – orzu, xotira va afsus-ohlar aralash bir lahza kabi. She'r inson umrining o'tkinchiligi, hayotning tez o'tishi, orzularning qushlar kabi uchib ketishi va o'tgan umrning tushga o'xshab xotirada qolishini juda nafis tarzda ifodalaydi. Bu misralar juda mulohazali bo'lib odamni hayot haqida chuqur o'ylantirishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala shoirning ijodida tush obrazi muallif ruhiyatini ochishda muhim badiiy - estetik vazifa bajaradi. Ammo bu obrazlar har bir shoirda turlicha maqsad va mazmun bilan talqin etilgan. Keltirilgan tahlillar umumlashganda, ikki shoirning tush ramzi orqali inson ruhiy olamining turlicha qirralarini ifoda etgani ko'rinadi. Tush – real hayot bilan ruhiyat o'rtasidagi nozik ko'priq sifatida har ikki she'riyatda markaziy badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Baxtiyor Genjemurod yaratgan obrazlar: yo'lbars, qora va oq aydarha, toshga aylangan qo'llar – barchasi insonning ichki kechinmasi, qo'rquvi, zulmat va nur, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Bu tushlar ruhiy bosim, zo'riqish, hayotiy sinovlar, o'zini o'zi yengish zaruratining ramzidir. Lirik qahramon zulmatga qarshi kurashish uchun ilohiy nurni – oy timsolini nishonga oladi. Bu esa ruhiy yuksalishning, ezgulikni tanlashning, mashaqqatlarda ham poklik va ma'naviy kuchga yuzlanishning kuchli majoziy ifodasidir. Ammo bu yo'lda ruhiy jarohatlar, armonlar ham mavjud shoirning "ming armon bilan" uyg'onishi shundan dalolat.

S.Sayyid she'riyatida esa tush mutlaqo boshqacha tus oladi: u poklik, yengillik, orzudek o'tib ketgan baxtli ayyomlarning ramziga aylanadi. Oq tush, oqqush, ishq to'la jomlar – bular ruhning eng musaffo holatlarini eslatuvchi yorug' metaforalar. Bu yerda tush qo'rquv emas, balki unutilmas lahzalar, qaytmas baxt, safolik va yorug' hayot lahzalarining ramziy ko'rinishidir. Shoir o'tgan kunlarga mehr bilan boqadi, ammo ularning tush kabi o'tib ketganidan iztirob ham seziladi. Demak, tush motivi: B.Genjemurod uchun – ruhiy kurash, zulmat ustidan nur bilan yengish, S.Sayyid uchun esa yorug' xotira, o'tkinchi baxtning musaffo timsoli.

Har ikkisi ham inson ruhiyatini ochishda, tuyg'ularning nozik qatlamlarini ifodalashda kuchli badiiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Umuman olganda, tush obrazining bunday turfa talqinlari she'riyatning imkoniyatlari cheksizligini, har bir shoirning ichki olamiga xos badiiy dunyoni ochib berishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyev M. O'zbek folklorida tush. O'zbek tili va adabiyoti. -2014. №4 5-bet
2. Bobonazarov A. Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi(70-80-yillar) T.1994, 71-bet
3. Б.Генжемуратов. Сайланды шығармалар. «Қарақалнақстан» баспасы, 2012-ж.
4. S.Sayyid. Ko'ngil sohili. Toshkent – 2004.
5. Q. Orazimbetov. Lirikaliq qahramannin kewil alemi. Amiwdaya jurnali. 2024. №2
6. S.Sayyid Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni – Toshkent:2005.
7. Genjemuratov B. Abirji. – Nukus, 2025.
8. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: 2018. Akademnashr.
9. G'afurov I. Lirikaning yuragi. –Toshkent, 1982.
10. Bobonazarov A. Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi(70-80-yillar) T.1994



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000